

O'ZBEKISTON KANDAKORLIGIDA BADIY BEZAK TAMOYILLARI



Karimova Arofat

O'zRFA San'atshunoslik instituti tayanch doktoranti

Hosiyatkarimova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785014>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kandakorlikda badiiy bezak tamoyillari, rang, xossa va bezak kompozitsiyasining matematik asoslari-ritm, simmetriya, bezak chiziqlarining grafik ifodasi, ularning elastikligi va harakatchanligi, moslashuvchanligi yoki burchakliligi; plastik-relef bezaklari va ishlatilgan tabiiy motivlarning ifodaviy sifatleri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Naqsh, badiiy bezak tamoyillari, rang, xossa, kompozitsiya, ritm, simmetriya, bezak, motiv, ramziylik, islamiy, grih, zoomorf.

Abstract. This article discusses the principles of artistic decoration in copper embossing, the mathematical foundations of color, properties and decorative composition - rhythm, symmetry, graphic expression of decorative lines, their elasticity and mobility, flexibility or angularity; plastic-relief decorations and the expressive qualities of the natural motifs used.

Keywords: Pattern, principles of artistic decoration, color, properties, composition, rhythm, symmetry, decoration, motif, symbolism, Islamic, Grah, zoomorphic.

Аннотация. В данной статье рассматриваются принципы художественного оформления чеканка, математические основы цвета, свойства идекоративная композиция — ритм, симметрия, графическая выразительность декоративных линий, их эластичность и подвижность, гибкость или угловатость; пластически-рельефные украшения и выразительные качества используемых природных мотивов.

Ключевые слова: Узор, принципы художественного оформления, цвет, свойства, композиция, ритм, симметрия, декор, мотив, символика, исламский, грих, зооморфный.

O'zbekiston xalqining tarixini, qadriyatlarini, ilm-fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. O'zbekiston badiiy kandakorligi XX asr ikkinchi yarmiga kelib, butunlay yo'qolib ketishdan arang saqlanib qoldi. 1980 – 90-yillarda kandakorlik Buxoroda jadal rivojlandi. U erda o'nlab ustalar va shogirdlar ishlaydi, Marg'ilon, Xiva, Toshkentda kandakorlik qayta tiklandi. Hozirgi zamon ustalari yasagan buyumlar, asosan, ko'rgazmaga qo'yishga yoki sovg'a sifatida berishga mo'ljallangan. Bugun O'zbekistonda baland bo'yli choyidish, oftoba, obdasta, qumg'on, choynak, ko'za, tung, dastshuy, selobcha, sharbatkosa, miskosa va boshqa xilma-xil turdagi kandakorlik buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Rang-barang, o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Kandakorlik san'ati markazlarida yaratilgan buyumlarda mahalliy o'ziga xoslik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Samarqandlik ustalar sayozroq bo'rtma hosil qilib nafis naqshlar yaratdi. Buxoroning kandakori rasmlari tekis bo'rtmali chizma usulida yaratildi. An'anaviy shakllardagi chiroyli idishlar (lagan, kosa, ko'za va boshqalar)ning

oq zamindagi ko'k, feruza, yashil, pushti ranglari soflik va salqinlik hissi bilan to'lgan. Zargarlar tomonidan toj, ayollarning peshona bezaklari, tilla marjonlar, uzuklar, tilla va kumushdan har xil toshlar (la'l, feruza, lojuvard, zumrad, nefrit, va boshqa) qadab shokilali ziraklar yasaldi. Chiroyli bezatilgan ot abzallari va qurollar tayyorlandi, tilla va kumushdan ishlangan pichoq qinlari nafis islamiy naqshlar bilan bosma usulida bezatildi, suyak va nefritli pichoq dastalari bo'rtma rangli toshlar bilan to'ldirilib naqshlandi yoki shabaqa naqshlarga feruza ko'zlar qadab bezatildi. Gliptika yuqori mahorat darajasini saqlab qoldi. Muhrlar va zargarlik bezaklari asosan aniq va rangli toshlardan ishlandi. Badiiy ifodalilikka shaklning (dumaloq, cho'zinchoq, serqirra, shakldor) go'zalligi va naqshin husnixat yozuvlarining mohirlik bilan joylashtirilishi orqali erishildi. Amaliy bezak san'atida davr ruhi an'analarga erkin ijodiy yondashishda, avvalo, naqshning aniq tasviri mavzular bilan boyishida o'z ifodasini topdi. Mis buyumlardagi kandakori naqshlarda hayvon, qush, baliq va hatto me'moriy obidalar tasvirlari kiritildi.

Badiiy-bezak berish – ijodning alohida turi bo'lib, ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, mustaqil asar sifatida mavjud emas, u faqat muayyan narsani bezaydi, xolos". Uni yaratish uchun turli ifoda vositalaridan foydalaniladi va juda murakkab badiiy tuzilma sifatida e'tirof etiladi. Ular orasida-rang, xossa va bezak kompozitsiyasining matematik asoslari-ritm, simmetriya, bezak chiziqlarining grafik ifodasi, ularning elastikligi va harakatchanligi, moslashuvchanligi yoki burchakliligi, plastik-relef bezaklarida va ishlatilgan tabiiy motivlarning ifodaviy sifatlari, bo'yalgan gulning go'zalligi, poyaning egri chizig'i, bargning naqshidir...". Ornament atamasi dekor atamasi bilan bog'liq bo'lib, "hech qachon sof shaklda mavjud emas, u foydali va chiroyli kombinatsiyadan iborat, funksionallikka asoslangan. Bezak buyum shaklini to'ldirishi yoki ajralib turishiga xizmat qilishi kerak. Naqshlar tizimlarini o'rganish – buyum va konstruksiyalarning badiiy ko'rinishini loyihalash yoki shakllantirish bilan shug'ullanadigan har bir usta hunarmand uchun zarur bo'lgan badiiy savodxonlikning maxsus bo'limi. Naqsh bezaklar – inson tasviri faoliyatining eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, u uzoq o'tmishda ramziy va sehrli ma'no, belgi va semantik funksiyani bajargan. Ammo dastlabki naqsh va bezak elementlari semantik ma'noga ega bo'lmay, faqat abstrakt belgilar bo'lib, ularda ritm, shakl, tartib va simmetriya hissi ifodalangan. Naqqoshlik tadqiqotchilarining fikricha, yuqori paleolit davrida (miloddan avvalgi 15-10 ming-yilliklar) paydo bo'lgan. Tasavvur qilinmaydigan ramziylikka asoslanib, bezak deyarli faqat geometrik bo'lib, doira, yarim doira, tasvirlar, spiralsimon chiziqlar, kvadrat, romb, uchburchak, xoch va ularning turli kombinatsiyalaridan iborat edi. Dekorda zigzaglar, choklar, chiziqlar, "archa" ornament, bo'yra ("arqon") naqshlari ishlatilgan. Qadimda odamlar dunyoning tuzilishi haqidagi g'oyalariga muayyan belgilar bergan. Masalan, aylana – quyosh kvadrat – yer, uchburchak – tog'lar, spiralsimon chiziqlar – rivojlanishni, harakati va boshqalar. Lekin ular, har ehtimolga qarshi, hali ob'ektlar uchun bezak fazilatlariga ega emas edi (ko'pincha ob'ektlar inson ko'zlari qismlari yashirin naqshlar bilan qoplangan — tagliklari, zargarlik buyumlarining teskari tomoni, tumorlar va boshqalar). Asta-sekinlik bilan bu belgi-ramzlar faqat estetik qadriyat sifatida qaralgan naqshning bezakli ifodaliligiga ega bo'ldi. Bezakning maqsadi aniqlandi-bezatish.¹

Kandakorlik buyumlarini bezashda foydalanilgan keng turdagi serjilo gullar turlari, O'zbek amaliy san'atining boshqa turlari bezagida ham uchraydi. Keng tarqalgan, islamiy gullarning xillari ko'p bo'lib, bunday gul bilan odatda tumorlar, to'pgullar, handasaviy shakllar, xilma-xil hoshiyalar yo'llari to'ldirilgan. Handasaviy girih guli ko'pincha asosiy bezakka qo'shimcha

¹ Z. MUXSINOVA "XIX - XXI ASR BOSHLARIDA BUXORO BADIY KANDAKORLIGI: TARIXIY BOSQICHLAR VA MAHALLIY O'ZIGA XOSLIK" (PhD) DISSERTATSIYA 96-bet

sifatida uni yana xam boyitish uchun ishlatilgan, hayvonot olamiga daxldor, uslublashtirilgan xolda qo'llanuvchi tasvirlar nisbatan kam uchraydi. Bunday badiiy ifodalar, asosan, hayvonlarning tana a'zolaridan birini aks ettirgan: chashmi bulbul (bulbulko'z), pushti baliq (baliq tangachalari), qo'chqorak (qo'chqor shoxi) va xokazo. Kandakorlik buyumlarining dasta, jo'mrak kabi qismlarini bezashda xayvon va parrandalar tana a'zolari butun holda tasvirlangan. Shu bilan birga kandakor ustalar, yulduz shakllari va kitoba (husnixat) lavhalariga katta e'tibor berganlar.²

KANDAKORLIK BUYUMLARINI YASASHNING TEXNIK USULLARI

Mis buyumlari uch xil mutaxassisning qo'lidan o'tgan. Sariq, qizil mis idishlarning ichki va tashqi sirlarini qalaylash ishlarini misgar ayrim detallarini masalan, dastasi, qopqog'i, qubbasining uchi (sonulasini), tumshug'i va boshqa qismlarini rixtagar, chiroyli nafis naqshlar bilan bezash ishlarini kandakor bajargan. Xayotda ishlanadigan buyumlar ikki yo'l bilan, ya'ni qolipi va kandakori hamda simkori kabi murakkab usulda naqshlanadi.

Qolipi — idishlarga qolip asosida naqsh yaratiladi. Po'latdan yoki brinjidana yasalgan qolip (o'yib yoki quyib ishlanadi) ustiga mis parchasini yoki yupqa qo'rgoshin plastinkasini quyib asta bolg'a bilan uriladi. Natijada mis parchalaridan naqshlar paydo bo'ladi. Naqshinkor mis parchalari mis buyumlariga xohlagan joyiga yopishtiriladi.

Kandakori — mis idishlarga o'yib naqsh ishlash usuli. Naqsh o'yib ishlash ikki xil: o'yma hamda chizma bo'ladi. O'yilgan naqshlar asosan kandakori, chizma esa yordamchi bo'ladi, chizma naqsh zaminlarini bezashda qo'llaniladi.

Simkori — metall ustiga mis, kumush, tilla simlarini chandiqlab, nozik naqshlar yaratish uslubi. Bu uslub temuriylar davrida juda keng qo'llanilgan. Uslub nihoyatda nazokatli va nafis bo'lgan.

«So'nggi 300 yil ichida metallga naqsh berish jarayoni qadimgisidan farq qiladigan bo'ldi. Masalan, XI asrda qolipi uslubi yuksak go'zallik libosini kiydi. So'ng 100 yil ichida qolipi uslubi faqatgina mis buyumlar ustiga yopishtiriladigan qoplama detallarga naqsh berishdagina qo'llaniladigan bo'ldi, xolos. Kandakorlikning qadimgi uslubida kesilgan naqshlarning zaminlariga, naqsh oralariga ishlov berilmas edi. Chunki buyumlar sathi chuqur kesilishi bilan naqshlar ta'sirchanligi kuchayib zaminlarni soya va yarim soyalar qoplab qolar edi. Bu uslub asosan kumush idishlarni naqshlashda qo'llanilar edi.» Keyingi yillarda o'yma naqsh zaminlariga ishlov beriladigan bo'ldi. Zamin sayozlanib uning nafisligi yanada ortdi. Zaminlarga esa chekma, katak gullar bilan jilo beriladi. Asta-sekin chekma o'rnini qisqa parallel chiziqlar egallaydi.

Kandakorlar naqsh o'yib ishlashda qattik po'latdan yasalgan naqsh qalam, ko'z o'yar qalam, tozalov qalam, parma qalam hamda chekuv qalam deb ataladigan asboblarni ishlatadilar. Bulardan tashqari bolg'a, qayroq, randa, pargor hamda misqollar xam ishlatiladi.

Qalam — po'latdan yasalgan xilma-xil naqshni zarb bilan o'yadigan kandakorlik asbobi. Qalamning keskichlari (chilangirlari) po'latdan yasaladi.

Ko'zo'yar qalam — uchi yapaloq kandakorlik asbobi, U naqshlarni ustiga bezak berishda ishlatiladi.

Parma qalam — zarb qilingan zaminlarni bezash uchun ishlatiladigan misgarlik asbobi. Bu qalamda har xil choksimon bezaklar bajariladi.

Chekuv qalam — naqsh zamini va naqsh konturlarini bezashda ishlatiladigan kandakorlik asbobi (qalam turlaridan biri) uchi o'tkir. dastasiz bo'ladi

² A. Hakimov, V. Fayziyeva "O'zbekiston davlat san'at muzeyi noyob xazinasidan" Toshkent 2014 100-bet

Randa — mis buyumlar sirtiga zarb qilingan badiiy naqshlarga pardozi beradigan kandakorlik asbobi.

Kandakor mis idishga qalin qandal qoplangan yogoch kursi oldida o'tirib ishlaydi.

Kandal — saqichga o'xshash narsa bo'lib, mis laganlarga naqshlarni zarb qilishda ishlatiladi. Saqich mis laganni orqasiga yopishtiriladi so'ng kandakor naqsh o'yadi. Saqich «Xindistonning ayrim rayonlarida va Eronning Mozandaron viloyatida o'simliklar shirasidan tayyorlanadi. Shira avval qaynatiladi, sovutiladi, so'ng taxtachaga qo'yib qotiriladi. Ana shu mum yostiqla ustiga buyumni qo'yib gul o'yiladi»

Agar ichi bo'sh, uzun bo'lyi idishlarga naqsh bermoqchi bo'lsak, idishlarni ichi qum yoki latta bilan to'ldiriladi. Qalamni bolg'acha bilan urib, o'yib naqsh solinadi. Zarb qilingandan so'ng naqsh sirtlari tozalanadi. Chetlarini kesib to'g'rilanadi. Keyin zamin zarbori ishlanadi, nihoyat buyumlar sirtiga pardozi beriladi.

BADIIY BEZAK TURLARI

Mis choydush, oftoba, qumg'on va boshqalarga zarb bilan bezak beriladi. Idishlarning orqa va old tomonlari o'ziga xos bezaladi. Masalan, zarb qilingan naqshlarni chetidan xoshiya bilan o'ralmaydi, ko'rkam naqsh motivlari bilan bezaladi, juda murakkab nafis naqshlar bilan to'ldirib ishlanadi. Mis laganlarga zarb qilinadigan naqsh kompozitsiyalari o'ziga xos turlarga ega. Gardish, turunj, mehrob, sitora, ishkak naqshlari ishlanadi.

Mehrob — mehrob tasvirini beruvchi naqsh. Ya'ni markazdan aylana atroflab bir necha mehroblar tutashib hosil qilgan naqsh. Mehrobning turi juda xilma-xil. Masalan, mehrobi bargi bed, mehrobi duraftor, mehrobi duraftor islimi, mehrobi muhja, mehrobi madohil, va boshqalar.

Sitora — mis idishlarni butun sirtini yulduzsimon naqsh qoplab olgan kompozitsiya.

Gardish — naqshlar doiralardan tashkil topgan ritmik joylashgan kompozitsiya. Markazida joylashgan doirani chetlari keng va qisqa yo'llar bilan o'raladi.

Ishkak — ishkakband, mis laganlarni markazi turtburchak romlar chegarasi bilan chegaralangan naqsh kompozitsiya. Uning bu romlari naqshlar bilan to'ldiriladi.

Turunj — tuxumsimon, ovalsimon jimjimador xar xil bezakli naqsh.

Mis zarb qilingan badiiy naqshlarni geometrik, me'moriy, o'simliksimon, jonivorsimon yozuvli naqshlar va maishiy buyumlar tasviri juda ko'p ishlatilgan. Kandakorlikda asosan islamiy naqshlar juda ko'p ishlatiladi. Xoshiyalar va xar xil yo'llar eng oddiy o'simliksimon naqshlar bilan to'ldiriladi. Bu naqshni «nim islimi» deb yuritiladi. u bir-biriga chirmashib ketgan murakkab o'simliksimon naqsh bo'lib, bir tomonlama ulanib ketgan bo'ladi. Nim islimi hoshiya o'rnida ishlatilib, buyumning nomiga qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun uning turli xillari bor. Masalan, nim islimi bargak, nim islimi madohil va hokazo. O'simliksimon naqshlar shakli va mazmuniga ko'ra lola, bodom, qalampir, buta va shunga o'xshash nomlar bilan yuritiladi,

Metall buyumlarga qadimdan jonivorlar va odam shaklini tasvirlash keng tarqalgan edi. Masalan, chashmi bulbul, qo'chqorak, pushti baliq, qirma, zuluk, kapalak, ilon izi va boshqalar bilan ataladigan bo'ldi.

Chashmi bulbul — mis idishlarga bulbulning ko'ziga o'xshash zarb qilingan naqsh. uni bulbul ko'zlari deb xam yuritiladi;

Qo'chqorak — qo'chkor shoxiga o'xshash naqsh;

Pushti baliq — baliq tangachasimon naqsh turi. Uni baliq tangachalar deb yuritiladi;

Kirmak — chirmok, margilonda «kir-kira» deb yuritiladi. Kirmak chirmovuksimon naqsh turi ilon izi — to'lqinsimon o'simliksimon naqsh. Toshkentdagi boshqa viloyatlarda «islami» naqsh deb yuritiladi.

Geometrik naqshlar kandakorlik bezaklarida juda kam ishlatilgan. Geometrik naqshlar ikkinchi darajali naqsh rolini o'ynagan.

Ustalar asrlar davomida misga naqsh o'yar ekanlar, har bir naqshlarini o'ziga xos nomlar bilan yuritilishini ko'ramiz. Har bir naqshga nom qo'yilishi o'z- o'zidan bo'lmagan albatta, bu nomlarni har bir naqshning mazmuniga, shakliga, biror narsaga o'xshatib, taqqoslab, murakkab soddaligiga qarab, naqshning turiga qarab boshqa mamlakat yoki shaxarning nomiga va boshqa sabablarga asoslanib har bir naqshga nom qo'yganlar. Masalan, «mashhadi», «arabi», «isfaxoni» va boshqa so'zlar naqshlarning nomiga qo'shib aytiladi. Buning sababi ustalar o'z ishlarida Mashhad, Arabiston, Isfaxon (Eron) ustalarining tayyor naqsh nusxalaridan foydalanganliklari uchun shunday nomlar bilan yuritganlar. Ko'pincha, bunday naqshlardan ijodiy foydalanib, o'zimizning stilimizga moslab naqsh elementlar qo'shganlar. Naqshlar agar aylana shaklida bo'lsa, bunday naqshni «naqshi girdob», uchburchak shaklida bo'lsa «uchburchak naqsh», agar ikki chizik orasida bir novda pechakka o'xshab o'sib kurtak, g'uncha va novdacha chiqarib bir yoki ikki tomonga o'ssa bunday naqshni «pechak islimi» yoki «raftor naqsh» deb yuritiladi. Mis idishlariga eng oddiy naqsh bu chiziladigan to'g'ri chiziqdır. Bu chiziq bir naqshni ikkinchisidan ajratib turish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun naqsh kompozitsiya chizishda avval shu to'g'ri chiziqlar chizib olinadi. Bu chiziqlarni yakka, ikki hattoki uch qavat qilib chizish ham mumkin. Bir chiziqni yakka xat, ikki chiziqni qo'sh xat deb yuritiladi. Kompozitsiyada turli-tuman chiziq holda belbog'lar bo'ladi, bularning hammasini «zanjir» deb yuritiladi. Zanjir egri chiziq, nuqtali chiziq hamda to'liqlik chiziqlarga bo'linadi. Mis o'ymakorligida ba'zi naqshlar qadimdan ishlatilib kelinadi, bunday naqshlardan biri «tugma naqshdir» yoki «tugmacha» deb yuritiladi. Bu naqsh mis idishlarga zarb qilingan tugmachaga o'xshagan naqsh bo'lib, Toshkent kandakorligida ishlatiladi. Tugma naqshning o'rtasida ko'pincha nuqtasi bo'ladi.³

Kalligrafiya ya'ni arab xati ko'rinishidagi naqsh-yozuvlar. Yuqori darajadagi mukammallik kandakorlikning xattotlik bilan bog'liq bo'limiga tegishli. Arab, fors tilidagi matn va she'rlar, “suls, nasx, rayxoniy, muhaqqaq, nastaliq” xatlarida bitilgan. Buyumning eng so'ngi yakunlovchi tasmaida yoki markazdagi rozetkada ustaning ism sharifi va buyum ishlangan sana ko'rsatilgan. Buxoroda eng ko'p ishlatiladigan usul buyumlarga bayt bitish edi. Ular Qur'oni Karimdan suralar asosan suv, oziq-ovqat, meva va taom ist'emoliga bag'ishlangan. Qiziqarlisi shundaki, arab xattotligi ya'ni kalligrafiya yordamida qurol aslahaga ham zeb berilgan. Kandakori buyumlarning alohida motivi sifatida maishiy buyumlarning tasvirini ta'kidlash o'rinlidir. Kulolchilik singari kandakorlikda ham ular tez-tez uchrab turadi. Qiyofasi uslublashtirilgan bunday tasvirlar diqqat bilan kuzatilganda ma'lum bo'ladi. Bular: “guldon”, “guli chetan”, “katak”, “naqshi muxri”, “yelpug'ich” kabilardir. Keng tarqalgan naqshlardan biri rozetkalardir. Bunday naqshlarning kelib chiqishi samoviy belgilar bilan bog'liq bo'lgan holda ularni aks ettiruvchi naqsh deb ham e'tirof etiladi. Bunday naqshlar asosan patnis va kosalarning markaziy qismida uchraydi va davra naqshi sifatida qo'llaniladi. Atrofi gulchambardek ingichka tasma bilan o'ralgan bu naqsh “naqshi girdob” ya'ni girdobga o'xshash deb atalgan. Bundan tashqari kandakorlikda kosmologik naqshlar va tabiat hodisalariga taqlid qilgan naqshlar ham qo'llaniladi: “girdob”, “aylanma” – suv girdobi, “guli mavj” – to'liqlik, “oftob” – quyosh, “mox” yoki “oy” – oy, “sitara” – yulduz. Eng qadimiy obrazlardan biri, Buxoro san'atida o'z ifodasini topgan “hayot daraxti”, uni “vaq-vaq” deb ham atashgan. Bu daraxt mevasi o'rniga qushlar, hayvonlar ba'zida

³ S. BULATOV “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati” Toshkent “Mehnat” 1991 277-bet

xatto insonlar shoxlarda aks etgan. Shuning uchun bu motiv Osiyo va Arab mamlakatlarida hanuzgacha katta ilmiy qiziqish uygʻotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Hakimov, V. Fayziyeva “ O‘zbekiston davlat san’at muzeyi noyob xazinasidan” Toshkent 2014 100-bet
2. Z MUXSINOVA ”XIX - XXI ASR BOSHLARIDA BUXORO BADIY KANDAKORLIGI: TARIXIY BOSQICHLAR VA MAHALLIY O‘ZIGA XOSLIK” (PhD) DISSERTATSIYA 96-bet
3. S. BULATOV “ O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” Toshkent “Mehnat” 1991 277-bet